

O'zbekiston va Malayziya aloqalarida zamonaviy kimyo sanoati alohida o'rin tutadi

// 23.01.2025

<https://uzkimiyosanoat.uz/oz/press/news/uzbekistan-malaysia-chemistry>



O'zbekiston va Malayziya o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar yildan-yilga mustahkamlanib, yangi yo'nalishlarda rivojlanmoqda. Jumladan, strategik va istiqbolli sohalardan biri kimyo sanoati yo'nalishida ham. Har ikki mamlakatning kimyo sanoatini rivojlantirishdagi istiqbollari va zamonaviy texnologiyalar, ekologik barqarorlikni ta'minlashdagi tajribalarini hisobga olgan holda, mazkur sohadagi hamkorlik iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonning kimyo sanoati mamlakatning eng muhim iqtisodiy sektorlaridan biridir. Mamlakatda keng ko'lamdagi tabiiy resurslar mavjudligi — xomashyo, minerallar, gaz va neft, kimyo sanoatiga katta ishlab chiqarish salohiyatini taqdim etadi.

Ayni paytda O'zbekistonda kimyo sanoatini rivojlantirish uchun ko'plab dasturlar va loyihalar amalga oshirilmoqda. Mazkur yo'nalishda davlat siyosatining asosiy maqsadi — ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, innovatsiyalar kiritish va milliy iqtisodiyotni mustahkamlashdir.

Yangi texnologiyalar va innovatsiyalarga yo'naltirilgan investitsiyalarni rag'batlantirilayotgani esa mamlakat kimyo sanoatining rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Sohaning zamon bilan uyg'un holda rivojlanishi uchun albatta, ilg'or ishlab chiqarish modellarini va innovatsion texnologiyalarni joriy etish zarur. O'zbekistonda kimyo sanoati rivoji uchun zamonaviy yechimlar, shuningdek, energiya tejash,

resurslarni qayta ishlash va chiqindilarni kamaytirish bo'yicha yangi texnologiyalarni amaliyotga tadbir etish foydadan holi emas. Bu borada Malayziyaning tajribasi muhimdir.

O'z navbatida, Malayziya Janubi-Sharqiy Osiyoda kimyo sanoatini rivojlantirishda muvaffaqiyatli tajribaga ega. Ushbu mamlakatda neft-kimyo, plastiklar, agrokimyo, farmatsevtika va biotexnologiya sohalarida rivojlanish kuzatilmoqda. Malayziya kimyo sanoatida ekologik jihatdan toza va innovatsion texnologiyalar bilan ishlab chiqarishni tashkil qilishga alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu mamlakatda ishlab chiqariladigan ko'plab kimyoviy mahsulotlar, masalan, o'g'itlar, plastiklar va bioparchalanadigan mahsulotlar jahon bozorida yuqori o'ringa ega.

Shu bois, ayni paytda "O'zkimyosanoat" AJ Malayziyaning jahonda nufuzi yuqori bo'lgan kompaniyalari bilan hamkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Xususan, ushbu mamlakatning yirik milliy neft, gaz va kimyo kompaniyasi – **Petronas** bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasining shimoliy mintaqasida umumiy qiymati 10 mlrd dollar bo'lgan "MTO texnologiyalari asosida polimer mahsulotlarini ishlab chiqarish" loyihasini hamkorlikda amalga oshirish istiqbollari ko'rib chiqilmoqda.

Bu borada, mintaqada barpo etilayotgan **qayta tiklanuvchi shamol va quyosh energiya manbalari negizida** Petronas kompaniyasi bilan hamkorlikda ushbu hududda joylashgan "**Borsakelmas**" tuz konidagi xomashyo va tabiiy gazni chuqur qayta ishlashga mo'ljallangan investitsiya loyihasini amalga oshirish rejalashtirilgan.

Mazkur "MTO texnologiyalari asosida polimer mahsulotlarini ishlab chiqarish" loyihasi doirasida Respublikamizning mavjud mahalliy xomashyo resurslaridan oqilona foydalangan holda kimyo tarmog'ida yuqori qo'shilgan qiymat zanjirini yanada kengaytirishga qaratilgan mahsulotlarni ishlab chiqarilishi ko'zda tutilgan. Loyihani amalga oshirilishi natijasida 2 mln tonnadan ortiq organik kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish orqali **avtomobil, qurilish, tekstil, maishiy kimyo sanoati va iqtisodiyotning boshqa sanoat tarmoqlari uchun** polipropilen, polietilen, akril kislota, superabsorbent polimer, PVX va poliollar kabi mahsulotlarni yetkazib berish rejalashtirilgan.

Shu bilan birga, bugungi kunda Yevropa bozorlarida yashil mineral o'g'itlarga bo'lgan talab yildan-yilga ortib borayotganligini hamda mamlakatimizning shimoliy hududlarida "yashil" iqtisodiyotga o'tish bo'yicha bir qancha yirik imkoniyatlar mavjudligini inobatga olib, xorijiy xamkorlar bilan yashil texnologiyalardan foydalangan holda mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha ham bir qator ishlar olib borilmoqda.

Jumladan, **Petronas** kompaniyasi bilan hamkorlikda yashil vodorod va ammiakdan yashil mineral o'g'itlarni **to'liq ishlab chiqarish zanjirini yaratish** orqali qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlarni yetkazib berish hamda Yevropa va dunyoning boshqa bozorlariga eksport qilish rejalashtirilgan.

Malayziyalik ishlab chiqaruvchilar O'zbekistonda yangi loyihalarni hamkorlikda amalga oshirishga qiziqayotgani, albatta, har ikki mamlakat uchun katta iqtisodiy foyda keltiradi. Ushbu hamkorlik mamlakatlarda yuqori texnologiyalar va yangi ishlab chiqarish modellarini ishga tushirish, kimyo sanoatiga aloqador bo'lgan yangi standartlarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Bu o'z navbatida ushbu mamlakat investorlarining O'zbekistondagi kimyo sanoatiga sarmoya kiritishi, yangi ishlab chiqarish korxonalarini tashkil qilish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish uchun zamonaviy texnologiyalar joriy etishidan dalolat beradi.

Shuni ham alohida ta'kilab o'tish joiz, O'zbekiston va Malayziya kimyo sanoatidagi hamkorlik ikki tomonlama yo'lga qo'yilgan. "O'zkimyosanoat" AJ tarmoq korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar ushbu davlatga eksportga yo'naltirilmoqda. Xususan, 2019-2024-yillar davomida umumiy qiymati 43,6 mln dollarlik kimyoviy mahsulotlar eksport qilindi.

Muxtasar aytganda O'zbekiston va Malayziya o'rtasidagi kimyo sanoatidagi hamkorlik istiqbollari ko'p tomonlama va o'zaro ishonchga asoslanadi. Malayziyaning yuqori texnologiyalar va ilg'or ishlab chiqarish jarayonlari, O'zbekistonning tabiiy resurslari va agrar salohiyati bilan birlashganda, ikki mamlakatning

kimyo sanoatiga yangi dinamika va iqtisodiy imkoniyatlar yaratadi. O'zbekiston va Malayziyaning hamkorligi, nafaqat kimyo sanoatini rivojlantirishda, balki ekologik barqarorlikni ta'minlash va yangi texnologiyalarni joriy qilishda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib qoladi.

Odil Temirov

"O'zkimyosanoat" AJ Boshqaruvi raisi